

Startup loyihalar qo'llab-quvvatlanmoqda

2021-yil 23-avgust kuni «O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy Banki» Aksiyadorlik jamiyatida bo'lib o'tgan taqdimot marosimi natijasida Toshkent shahridagi Turin Politehnika Universiteti talabalari milliy bank tomonidan startup loyihalari uchun ajratilgan kreditga ega bo'lishdi.

Kredit ajratilishdan maqsad – shijoatli yoshlarga barcha sohalarda o'z iqtidori va salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratish hamda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

Kredit miqdori – 100 ming AQSH dollari ekvivalentigacha miqdorda.

Taqdimot marosimi davomida talabalarimiz o'z loyihalari haqida batafsil ma'lumot berishdi. Kredit berishga loyiq deb topilgan loyihalar quyidagilar:

1. VELOCITY (veloprokat)

G'oya: Velosipedni bitta parkdan oling, mo'ljallangan manzildagi boshqa parkda qoldiring.

▪ PACS IMAGE VIEWER

G'oya: Apparat va dasturiy vositalar tizimi bo'lib, tibbiyot sohasida ishlatishga mo'ljallangan.

▪ PQB in IoT

G'oya: Ilmiy loyiha bo'lib, vazifasi Blockchain tizimini Quantum kompyuterlari orqali bo'lishi mumkin bo'lgan kiber hujumdan himoya qilish.

▪ SMART TRUNK SYSTEM

G'oya: Avtomobil yukxonasini oyoq harakati yordamida ochish imkoniyatini yaratuvchi sensor qurilma, avtomobilning orqa bamperining tag qismiga o'rnatiladi.

▪ SMART, SECURITY CAR ALARM SYSTEM

G'oya: Avtomobil uchun aqlli, xavfsiz, qo'riqlash tizimi

▪ BIOSTART

G'oya: Inson barmoq izi yordamida, kalitsiz, qulfni ochish qurilmasi bo'lib, energiya tejamlorligi jihatidan bir muncha qulayliklar beradi. Asosan avtomobillar uchun mo'ljallangan.





